Современные инструменты продвижения бренда в условиях цифровой экономики.....	1145
Темирова Феруза Сагдуллаевна	
"Raqamli asrda axborot xavfsizligi: it texnologiyalar bilan xavfsizlikni ta'minlash yo'llari"	1149
Sherzod Rajabov	
Государственное регулирование инвестиционной деятельности: проблемы и направления совершенствования.....	1152
Шухрат Турсунов, Икромов Хасан Зафарович	
Economic incentives and barriers to sustainable transition in agribusiness: a comparative study of organic and conventional farming systems	1157
Mubina Toirova	
Цифровая трансформация банковской системы узбекистана: анализ внедрения fintech-решений в государственных банках	1162
Абдурахимова Дилора Каримовна	
Ta'lim muassasalaridagi ba'zi jihatlar	1167
A'zam Qutbiddin A'zam-zoda	
Klasterlar hisob siyosatida boshqaruv hisobining metodologik asoslari.....	1173
Toshpo'latov Azizbek Shermuxamadovich	
Egri soliqlarning mohiyati, genezisi va rivojlanish tendensiyalariga oid nazariy munozaralar xususida	1179
Shodiyev Olimjon Abduraxmonovich	
Ekologik mehmonhona faoliyatini rejalashtirish maqsadlari va vazifalari	1186
Abidova Dilfuza Igamberdievna	



oldiga qo'yiladigan vazifalar mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasiga qarab belgilanadi. O'zbekiston Respublikasida iqtisodiyotni modernizatsiyalash va xususiylashtirish jarayonlarining jadallashuvi soliq siyosati strategiyasini belgilashda muhim o'rin tutmoqda.

Ushbu soliq siyosati strategiyasidan kelib chiqib belgilanadigan vazifalar Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "Soliq yukini izchillik bilan kamaytirish, soliq solish tizimini soddalashtirish va soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish iqtisodiyotni jadal rivojlantirish hamda mamlakatning investitsiyaviy jozibadorligini yaxshilashning eng muhim shartlari hisoblanadi. Shu bilan birga, o'rganishlar natijalari mazkur sohada bir maromda iqtisodiy o'sishga, ishbilarmonlik va investitsiyaviy faollikni oshirishga, sog'lom raqobat muhitini shakllantirishga, shuningdek, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar yig'iluvchanligining zarur darajasini ta'minlashga to'sqinlik qilayotgan bir qator tizimli muammolarni ko'rsatdi. Xususan, qo'shilgan qiymat solig'ini undirishning samarasiz tizimi, soliq to'lovchilarning aylanma mablag'larini jalb qiladigan, iste'mol mahsulotining oraliq va yakuniy qiymatini qimmatlashtiradigan, hamda yirik va kichik biznes o'rtasidagi kooperatsiyaning rivojlanishiga to'sqinlik qiladigan majburiy to'lovlar mavjudligi." [1]

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Adabiyotlar sharhi va bibliometrik tahlillar tadqiqotchilar tomonidan mavjud ilmiy yo'nalishlarni tahlil qilishda keng qo'llaniladi. Bu, adabiyotlarning umumiy ko'rinishdagi tahlili yoki alohida, to'liq tadqiqot shaklida olib borilishidan qat'i nazar, dolzarb yo'nalishlarni aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Yu va Vang adabiyotlar sharhi hamda bibliometrik tahlilni alohida tadqiqotlarning natijadorligini ko'rsatuvchi o'ziga xos omil sifatida e'tirof etadi [2].

Bibliometrik tahlil keyingi tadqiqot yo'nalishlari va dolzarb mavzularni aniqlashga xizmat qilishi so'nggi yillardagi tadqiqotlarda (Isroilov va boshqalar, 2023) ilmiy asosda tasdiqlangan [3]. Adabiyotlar sharhi bo'yicha olib borilgan izlanishlar yangi tadqiqotlarning ilmiy ahamiyatini aniqlashga yordam berishi olimlar tomonidan (Brazovskaya va boshqalar, 2022) ta'kidlangan [4].


TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu maqolada ilmiy mushohada, ekspert baholash usuli, abstrakt-mantiqiy tahlil, tanlab olingan adabiyotlar asosidagi tahlil, induktiv va deduktiv yondashuvlar, shuningdek, qiyosiy hamda tizimli tahlil usullaridan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Darhaqiqat, soliqlar – davlat tomonidan yuridik va jismoniy shaxslardan qonunda belgilangan me'yor va muddatlarda majburiy ravishda budgetga undiriladigan to'lov shakli bo'lib, mamlakat oldida turgan ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarni moliyaviy jihatdan ta'minlashning asosiy manbalaridan biridir.

Soliqlarning jamiyat moliya tizimidagi o'rnini yoritish hamda ularning iqtisodiy mazmunini ochib berishda soliqlarni undirish nuqtai nazaridan tasniflanishini bilish muhimdir. Quyidagi chizmada soliqlarning undirilishi bo'yicha tasnifi keltirilgan:



1-rasm. Soliqlarni undirish bo'yicha tasniflanishi¹

1 □ Muallif ishlanmasi.



Chizmadan ko'rinib turibdiki, soliqlarni asosan ikki yirik guruhga ajratish mumkin: to'g'ri va egri. To'g'ri va egri soliqlarni ajratish mezonlari xususida olimlar o'rtasida turli ilmiy munozaralar mavjud.

Jumladan, ingliz iqtisodchisi va jamoat arbobi Jon Styuart Millning ta'kidlashicha, qonun chiqaruvchining maqsadi asosiy mezon hisoblanadi. Ya'ni, to'g'ri soliqlar – bu qonun chiqaruvchining fikriga ko'ra, soliq to'lovchining bevosita zimmasiga yuklatiladigan soliqlardir. Egri soliqlar esa soliq to'lovchi tomonidan boshqa bir shaxs zimmasiga o'tkaziladigan soliqlar sifatida qaraladi [5].

Mamlakatimiz iqtisodchi olimlari M. Alardonov va P. Saidxo'jayevlarning fikricha, bunday bo'linish soliqqa tortish obyekti hamda soliq to'lovchi bilan davlat o'rtasidagi munosabatlarga bog'liq [6].

Bizning fikrimizcha, soliqlarning to'g'ri va egri turlarga bo'linishidagi asosiy mezon – eng so'nggi soliq to'lovchining aniqlanishidir. Agar eng so'nggi soliq to'lovchi soliqqa tortilgan daromad yoki mulk egasi bo'lsa, bunday soliqlar to'g'ri soliqlarga kiradi. Egri soliqlarda esa eng so'nggi to'lovchi – bu mahsulot yoki xizmat iste'molchisidir, ya'ni narxga ustama shaklida soliq yuklangan mahsulotning oxirgi xaridoridir.

Tadqiqot obyekti doirasida egri soliqlar tahliliga alohida e'tibor qaratildi. Egri soliqlar to'g'ri soliqlardan o'zining niqoblangan xarakteri bilan ajralib turadi. Ular sotilayotgan tovar yoki xizmat narxiga ustama sifatida belgilanadi va natijada, haqiqiy soliq to'lovchining daromadi yoki mulki bilan bevosita bog'liq bo'lmaydi. Qonunchilikka ko'ra, ushbu soliqlarni budjetga to'lash majburiyati ishlab chiqaruvchi, sotuvchi yoki xizmat ko'rsatuvchi sub'yekt zimmasiga yuklanadi. Ammo amalda soliq yuki narxga qo'shilgan egri soliq shaklida oxirgi iste'molchiga yuklatiladi.

Ayrim iqtisodchilar egri soliqlarni baholaganlarida ularning adolatsiz xarakterga egaligini ta'kidlaydilar. Ularning fikricha, odam qanchalik qashshoq bo'lsa, egri soliqlar ko'rinishida davlatga o'z daromadining nisbatan katta qismini ajratadi [7].

Bizning fikrimizcha, egri soliqlarga faqat soliq to'lovchilar nuqtai nazaridan yondoshish yetarli emas. Aholini davlat budjeti hisobidan ijtimoiy himoya qilish an'anasining yildan-yilga kengayib borishi uni barqaror daromad manbai bilan ta'minlash muammosini kun tartibiga olib chiqadi. Shu nuqtai nazardan, egri soliqlar ko'pchilik rivojlanayotgan mamlakatlar budjetida barqaror moliyaviy manba sifatida e'tirof etilmoqda.

Egri soliqlarga ta'rif beriladigan bo'lsa, ular – soliq hajmiga teng bo'lgan, narxga ustama shaklida tovar va xizmatlar iste'molchilaridan undiriladigan soliqlar turidir.

Ko'sh, ushbu soliqqa tortish shaklining afzalliklari nimada namoyon bo'ladi? Birinchidan, egri soliqlar yirik soliq tushumlarini amaliy va barqaror ravishda ta'minlash imkonini beruvchi, budjetga daromad jalb qilishning eng qulay shakllaridan biridir. Ikkinchidan, ular iqtisodiyotga ta'sir ko'rsatish xususiyatiga ega bo'lib, ishlab chiqarishni rag'batlantirish yoki iste'molni tartibga solish kabi vazifalarni bajaradi. Bu mexanizmdan foydalanganda milliy iqtisodiyot xususiyatlarini e'tiborga olish va uning oqibatlarini chuqur kompleks tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu sababli, rivojlangan mamlakatlarda bilvosita soliqqa tortishning ayrim salbiy jihatlar mavjud bo'lishiga qaramay, bu soliqlar iqtisodiy o'sishga to'sqinlik qilmaydi [7].

Qayd etish joizki, to'g'ri va egri (iste'mol) soliqlarning iqtisodiy jarayonlarga ta'sir doirasi bir xil emas. Masalan, qo'shilgan qiymat solig'i, aksiz solig'i kabi iste'mol soliqlari soliq tizimining "rivojlanuvchanlik" salohiyatini pasaytiradi va ijtimoiy jihatdan himoyaga muhtoj qatlamlar uchun soliq yukini og'irlashtiradi.

Shunga qaramay, iste'mol soliqlari ba'zan daromad soliqlariga nisbatan adolatliroq ko'rinadi. Biroq daromad soliqlari muayyan shart-sharoitlarda jamg'armalarni sekinlashtirib, mehnatga bo'lgan rag'batni susaytirishi mumkin, chunki ular ish haqi yoki daromadni kamaytiradi. Iste'mol soliqlaridan puxta rejalashtirilgan tarzda foydalanish mamlakatning to'lov balansi holatini yaxshilashi va moliyaviy tizimning egiluvchanligini oshirishi mumkin.

G'arbiy Yevropaning deyarli barcha davlatlarida iste'mol soliqlari asosiy soliqlar sifatida amal qilmoqda [8].

Bizningcha, to'g'ri yoki egri soliqlarning iqtisodiy rivojlanishga ta'sirini tahlil qilishda mavjud iqtisodiy sharoit va voqelikdan kelib chiqib yondoshish maqsadga muvofiqdir. Soliq yukining taqsimoti, turli soliqlarning ulushi, ishlab chiqarish xarakteri, resurslar nisbati, aholining real daromadi va iqtisodiy sub'yektlar bilan davlat budjeti o'rtasidagi munosabatlar soliq siyosatining samaradorligini belgilaydi.

Masalan, agar mamlakatda soliq tizimi yetarlicha shakllanmagan bo'lsa va ishlab chiqaruvchilar uchun mahsulot sotish muammosi mavjud bo'lmasa, egri soliqlar ulushini oshirish budjet daromadlarini samarali to'plash imkonini beradi. Aksincha, barqaror iqtisodiy rivojlanishga ega sharoitda esa bunday yondashuv mahsulotlar omborlarda to'planib qolishiga va budjetga tushumning kechikishiga olib kelishi mumkin.

Iqtisodiy tanazzul davrida real daromadlar kamayishi to'g'ri soliqlar orqali moliyaviy resurslarni jamlash imkoniyatini cheklaydi. Ammo barqaror holatdagi iqtisodiyotda to'g'ri soliqlar resurslardan samarali foydalanish uchun imkon yaratadi.

Mamlakatimizda mustaqillikkacha egri soliqlardan foydalanish borasida jiddiy ishlar olib borilmadi. Natijada, ushbu soliqqa tortish shakli amaliy hamda nazariy jihatdan yetarlicha o'rganilmagan va e'tibordan chetda qolgan.



Barcha sohalarda bo'lgani kabi, soliq sohasidagi islohotlarning jadallashuvi hamda uni ilmiy asosda tahlil qilish zaruratining ortib borishi egri soliqlarni ham ilmiy va nazariy nuqtai nazardan chuqur o'rganishni taqozo etmoqda. Xususan, egri soliqlarning iqtisodiy jarayonlarga ta'siri borasidagi bahslarning hanuzgacha davom etayotgani, ushbu soliq shakllari yuzasidan klassik iqtisodchilar qarashlariga yana bir bor tahliliy yondashishni talab etadi.

Bu boradagi yondashuvni klassik iqtisodchilarning yirik yo'nalishlaridan biri – fiziokratlar maktabi qarashlarini tahlil qilishdan boshlash maqsadga muvofiq. Fiziokratlar yerga solinadigan yagona soliq nazariyasini ilgari surar ekan, egri soliqlarning nazariy asoslariga qarshi chiqqanlar. Jumladan, fiziokratlardan O. Mirabo barcha turdagi egri soliqlarni bekor qilish zarurligini ta'kidlagan. F. Kene esa egri soliqlarning faqat qishloq xo'jaligi katta ahamiyat kasb etmagan, asosan savdo bilan shug'ullanuvchi davlatlarda qo'llanishi mumkinligini bildirgan.

Fiziokratlarning yetuk vakillaridan biri A. Tyugo egri soliqlarning salbiy oqibatlarini quyidagicha bayon etadi: "Egri soliqlar oborotni siqib qo'yadi, u aldovga olib keladi, hokimiyat bilan soliq to'lovchilar o'rtasida ziddiyat keltirib chiqaradi, jazo va zo'ravonlikni kuchaytiradi hamda insonlar qurboniga sabab bo'ladi. Egri soliqlar erkinlikni yuzlab yo'llar bilan buzadi, iste'molning tabiiy yo'nalishini o'zgartiradi, o'zini o'zi yemiradi, davlat xarajatlarini oshiradi. Bu soliqlar xorijliklar uchun ichki bozorda afzallik yaratadi. To'g'ri soliqlarda esa mulk egasi daromadining qanchasi soliq sifatida undirilishini oldindan biladi, egri soliqlarda esa bu imkonsizdir. To'g'ri soliqlarda eng muhim tamoyillar – soddalik, barqarorlik va tezkorlik ta'minlanadi." [9]

Bizning fikrimizcha, fiziokratlarning egri soliqlarga bo'lgan salbiy munosabati ularning umumiy iqtisodiy konsepsiyasiga – boylik faqat qishloq xo'jaligida yaratiladi degan fikrga asoslangan. Bundan tashqari, ularning qarashlari feodal ishlab chiqarish usullarining ustuvorligi va davlatning iqtisodiy hayotdagi keskin aralashuviga bog'liq bo'lgan.

A. Smit fiziokratlardan farqli o'laroq, boylik manbalari sifatida yer bilan bir qatorda kapital va mehnatni ham e'tirof etadi. Unga ko'ra, ish haqi va tadbirkorlik foydasiga solinadigan soliqlar to'g'ri soliqlar turkumiga kiradi. A. Smit egri soliqlarni xarajatlarga solinadigan soliqlar sifatida ta'riflab, ularning birlamchi tovarlarga nisbatan qo'llanilishi natijasida narxlarning oshishi aholining iste'mol darajasini pasaytirishi va buning natijasida ishlab chiqarish hajmi kamayishini qayd etadi. Biroq, u egri soliqlarsiz davlat zarur moliyaviy resurslarni to'play olmasligini tan olgan holda: "Shu sababdan ham davlat bu soliqlarni bekor qilmasligi uchun asosli sabab mavjud," – deb yozadi [10].

A. Smit egri soliqlarning mohiyatini ochib berishga uringan ilk iqtisodchi sifatida tanilgan. Garchi u to'g'ri soliqlar tarafdori bo'lsa-da, davlat xarajatlarini qoplashda faqat to'g'ri soliqlarga tayanib bo'lmasligini anglagan va iste'mol soliqlari orqali tushumni to'ldirish zarurligini inkor etmagan. Fikrimizcha, uning qarashlari mazkur soliq turining hozirgi davrgacha dolzarbligini aks ettiradi.

Klassik iqtisodchilardan yana biri – J. Sismondi, egri soliqlarning asosiy kamchiligi sifatida ularning xarajatlarga solinishi tufayli daromadlar bilan bevosita mutanosib bo'lmasligini ta'kidlaydi. U, ayniqsa, egri soliqlarning regressiv xarakterini tanqidiy baholaydi.

Shuningdek, ingliz iqtisodchisi va klassik siyosiy iqtisod asoschilaridan biri bo'lgan U. Petti o'zining "Soliqlar va yig'imglar to'g'risida traktat" asarida egri soliqlarning afzalliklarini quyidagicha asoslab bergan:

Tabiiy adolat nuqtai nazaridan har kim o'z iste'moliga mutanosib ravishda soliq to'lashi kerak. Shu sababli, bu soliqlar majburiy emas, balki iste'mol zarurati bilan belgilanadi.

Agar bu soliqlar "otkup" usulida emas, balki doimiy tarzda undirilsa, ular tejamkorlikni ta'minlab, xalq boyishining yagona yo'liga aylanadi.

Har bir iste'molchi xarid qilgan bitta mahsulot uchun faqat bir marta soliq to'laydi, chunki biror mahsulotni ikki martadan ortiq iste'mol qilish mumkin emas.

Ushbu soliqqa tortish usuli orqali mamlakatning iqtisodiy salohiyati, sanoati, hunarmandchiligi va ijtimoiy rivojlanishi haqida doimiy ravishda ma'lumotga ega bo'lish mumkin [11].

Ushbu mazmunda yana bir diqqatga sazovor ilmiy ish mavjud. Fransuz ma'rifatchisi Sharl Lui Monteskye tomonidan yozilgan "Qonunlar ruhi to'g'risida" (1748-yil) asarining ayrim boblari aynan egri soliqlarga, jumladan aksiz soliqlarga bag'ishlangan. Muallifning fikricha, jon boshiga solinadigan soliq ko'proq qullikka xos bo'lib, tovarga solingan soliqlar esa ozodlikka xizmat qiladi, chunki ular soliq to'lovchining shaxsiga bevosita daxl qilmaydi.

Monteskye shunday deydi: "Ushbu soliqlar sotuvchi tomonidan to'langani bilan, aslida ular xaridordan undiriladi. Ya'ni bu – savdogardan xaridor tomonidan to'lanadigan ssudadir. Shu bois savdogar bir vaqtning o'zida davlat oldida qarzdor, va barcha shaxslar uchun – kreditor. Xaridorlar tomonidan keyinchalik to'lanishi lozim bo'lgan soliqlarni u davlatga oldindan to'lab qo'yadi. Tovarga soliqni to'lash orqali u xaridor nomidan to'laydi. Demak, boshqaruv tizimi qanchalik mo'tadil bo'lsa, shunchalik unda ozodlik ruhi hukmron bo'ladi. Mol-mulkning xavfsizligi qanchalik yuqori bo'lsa, savdogarning soliqlarni oldindan to'lab berishi shunchalik osonlashadi. Albatta, bu holatda u xususiy shaxslarga go'yoki ssuda bergan bo'ladi." [12]



Bizning fikrimizcha, egri soliqlarning ko'plab iqtisodchi olimlar tomonidan bahsli deb topilishiga asosiy sabab – bu soliqlar aholi barcha qatlamlari tomonidan to'lanadi va ularning ijtimoiy-iqtisodiy manfaatlar bilan to'qnash keladi.

Soliqlarning iqtisodiy mohiyatini yoritishda rus olimi N. Turgenyev katta hissa qo'shgan. U bilvosita soliqqa tortishni nazariy tamoyillar bilan solishtirgan holda quyidagi xulosalarni bildiradi: "Kundalik ehtiyoj tovarlarining iste'molidan soliq undirilishi soliqqa tortishning asosiy tamoyillariga zid keladi, chunki bu holda to'lovchining daromadi e'tiborga olinmaydi. Masalan, boy ham, kambag'al ham tuz uchun bir xil miqdorda soliq to'laydi. Ikkinchi tamoyilga ko'ra, tovar narxi va unga qo'shilgan soliq miqdori hammaga ma'lum. Uchinchi tamoyil – qulay vaqtda to'lash: bu holatda qulay payt xarid vaqtidir. To'lovchi tuz yoki non iste'molini kechiktira olmaydi, shu sababli u xaridni istalgan vaqtda amalga oshiradi, qulay bo'lishidan qat'i nazar. To'rtinchi tamoyilga bu soliqlar to'liq mos kelmaydi, chunki yig'imlar yuqori xarajatlarni talab etadi."

Turgenyev fikricha, kundalik iste'mol tovarlari narxining oshishi aholining kam ta'minlangan qatlamida iste'molni cheklab qo'yadi. Hashamatli tovarlarga nisbatan belgilangan soliqlar esa ish haqi darajasiga ta'sir ko'rsatmaydi [9]. Ushbu nuqtai nazardan, Turgenyev egri soliqlarni inflyatsiyani rag'batlantiruvchi omil sifatida baholaydi. Demak, bilvosita soliqqa tortishda tadbirkor manfaatlar bilan yollanma ishchilar manfaatlar o'zaro kesishadi.

XIX asrning o'rtalarigacha moliya fanida egri soliqlarning afzallik yoki kamchiliklari yuzasidan yagona fikr shakllanmagan. Bu holat, bizningcha, moliya fani va soliqqa tortish amaliyotining rivojlanmagan holatini aks ettiradi. Biroq barcha tadqiqotchilar egri soliqlarning regressiv xarakterga ega ekanligini tan olgan va bu keyinchalik ularni progressiv daromad soliqlari bilan almashtirish uchun asos bo'lib xizmat qilgan. Regressivlikni kamaytirish maqsadida moliyachilar egri soliqlarni to'lovchilarning to'lov qobiliyatiga moslashtirish zarurligini ta'kidlaydilar. Shu sababli moliya fani asosiy hayotiy zarurat tovarlarini soliqqa tortmaslikni tavsiya etgan. Biroq bunday maqsadga to'liq erishish amalda har doim ham imkoni bo'lmagan. Zaruriy tovarlarga nisbatan soliqlar qo'llanishi ularning narxini oshiradi, bu esa ish haqlarining o'sishiga bosim qiladi.

XIX asr moliya fanida egri soliqlarga nisbatan salbiy munosabat asosan ularning bozor iqtisodiyotiga salbiy ta'siri bilan bog'liq bo'lgan. Bu davrda bilvosita soliqqa tortish ayniqsa mayda sanoat sub'yektlariga salbiy ta'sir ko'rsatgan. Hatto ba'zi hollarda egri soliqlardan qochish uchun ayrim tovarlarning ishlab chiqarilishi taqiqlangan. Masalan, Rossiyada tamaki va gugurt ishlab chiqarishga cheklovlar qo'yilgan. Texnik taraqqiyot bilan birga aksizlar ko'plab hollarda tadbirkorlik faoliyatiga jiddiy salbiy ta'sir ko'rsatgan. Shuning uchun XIX asrning birinchi yarmida tadbirkorlar daromad solig'i joriy etilishiga qarshilik ko'rsatmagan. Ularning asosiy talabi aksizlar va bojxona bojlari kabi ayrim egri soliqlarning bekor qilinishi bo'lgan. Hatto XVIII asr oxirida Angliyada rivojlangan oynachilik sanoati XIX asrda aksiz solig'i tufayli Fransiyaga ko'chirilgan.

Totalitar tuzum sharoitida shakllangan rus moliya maktabi vakillarining fikrlarida esa egri soliqlarning fiskal ahamiyatiga katta e'tibor qaratilgan. Jumladan, rus moliyachisi M.N. Sobolyev quyidagi fikrlarni bildiradi: "Birinchidan, egri soliqlar keng iste'mol tovarlariga nisbatan qo'llanilgani sababli davlat uchun yuqori daromad manbaidir. Ikkinchidan, bu soliqlar narx tarkibiga kiritilgani uchun iste'molchi tomonidan bevosita anglanmaydi. Uchinchidan, soliq tovar narxiga kiritilgani sababli, uni xaridor sotib olayotgan paytda – ya'ni unda mablag' mavjud bo'lganida – to'laydi. Bu holatda to'g'ri soliqlarda yuzaga keladigan boqimandalik holatlari kuzatilmaydi."

Egri soliqlarning kamchiliklari sifatida esa quyidagilar keltirilgan: birinchidan, ular regressiv xarakterga ega, ya'ni to'lov qobiliyatiga teskari proporsional. Ikkinchidan, ularni yig'ish katta xarajat talab qiladi. Tovarlarini soliqqa tortmasdan bozorga chiqarishni nazorat qilish uchun katta sonli nazoratchilar kerak bo'ladi. Uchinchidan, egri soliqlar tadbirkor manfaatlariga zid bo'lib, moliya organlarini ishlab chiqarish va ayirboshlash jarayonlariga bevosita aralashishga majbur qiladi.

Egri soliqlar yuzasidan mavjud turli qarashlarni umumlashtirar ekan, yana bir rus olimi L.V. Xodskiy quyidagicha xulosa qiladi: "Egri soliqlarni moliya tizimida ustuvor bo'lgan oqilona soliqlar qatoriga kiritib bo'lmaydi" [13].

Yuqorida tahlil etilgan olimlar qarashlaridan ko'rinadiki, ularning aksariyati egri soliqlarning mavjudligiga to'liq qarshi emas, balki ularni muayyan tartib va cheklovlar asosida joriy qilish zarurligini isbotlashga intilgan.

XX asr boshlariga kelib, davlatning fiskal manfaatlar bilan iqtisodiy rivojlanish (jumladan, ishlab chiqarish texnologiyalarining sifat jihatdan o'zgarishi va katta hajmdagi investitsiyalarni jalb qilish zarurati) hamda jamiyatning iqtisodiy tuzilmasi o'rtasida ziddiyat yuzaga keldi. O'sha davrda bilvosita soliqlar davlat budjeti daromadlarining asosiy manbasi bo'lib xizmat qilgan, ularni boshqa soliq shakllari bilan almashtirmasdan iqtisodiy o'sishga erishish dolzarb muammo edi. Muqobil yechim sifatida aholi daromadlariga nisbatan progressiv soliq stavkalarini qo'llash taklif etildi.

Soliqqa tortish shakllarini chuqur tahlil qilgan moliya fani quyidagi xulosaga keldi: faqatgina bilvosita va bevosita soliqlarning mutanosib nisbatda qo'llanilishi orqali davlatning fiskal manfaatlar hamda soliq to'lovchilarning iqtisodiy manfaatlariga mos keluvchi samarali soliq tizimini barpo etish mumkin. "Ushbu maqsadga erishishda, to'g'ri soliqlarni samarali tashkil qilish bilan bir qatorda, egri soliqlar davlat moliya



tizimining asosiy tayanchi bo'lmashligi, ularning stavkalari yuqori bo'lmashligi, birlamchi ehtiyoj tovarlariga nisbatan qo'llanmasligi, lekin baribir davlat xarajatlarini moliyalashtirishga xizmat qilishi lozim" [13].

Xorijiy olimlarning iqtisodiy qarashlarini tahlil etish asnosida, mamlakatimizdagi tadqiqotlarga ham e'tibor qaratish lozim.

1917-yildagi Oktabr inqilobidan keyin siyosiy sabablarga ko'ra klassik soliq nazariyalari ta'qib ostiga olingan, bu esa O'zbekistonda mazkur sohadagi ilmiy izlanishlarning uzoq vaqt to'xtab qolishiga sabab bo'lgan. Ammo mustaqillik yillarida soliqlarning davlat tomonidan iqtisodiyotni tartibga soluvchi asosiy vosita sifatida tan olinishi mazkur yo'nalishdagi tadqiqotlarning dolzarbligini oshirdi.

Egri soliqlarning iqtisodiy mohiyati, ularning jamiyat taraqqiyotidagi o'rni va iqtisodiy jarayonlarga ta'siri masalasini mamlakatimiz olimlaridan professor Q. Yahyoyev chuqur ilmiy va amaliy jihatdan o'rgangan. U egri soliqlarning ijobiy va salbiy xususiyatlarini quyidagicha tahlil qiladi:

"Huquqiy to'lovchilar – mahsulot yetkazib beruvchilar, ish va xizmat ko'rsatuvchilardir. Ammo soliq yukining haqiqiy to'lovchilari – bu tovar, ish yoki xizmatlarni iste'mol qiluvchilardir. Ular yashirin soliq to'lovchilardir, chunki soliq narx ustiga qo'shilgan ustama ko'rinishida undiriladi. Bu soliqlarning ijobiy jihati shundaki, ular ichki bozorda ishlab chiqarilgan mahsulotlarning chetga chiqib ketishini chegaralaydi va ichki ishlab chiqarishni rag'batlantiradi. Egri soliqlar orqali mahsulotlar qiymati oshirilmasa, bozorlarda taqchillik yuzaga keladi. Ularning stavkalarining oshirilishi esa korxonaga investitsion faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatmaydi. Shu bilan birga, bu soliqlar muomaladagi ortiqcha pul massasini kamaytiradi va iqtisodiy inqirozlarni jilovlashda yordam beradi. Biroq bu soliqlar mehnatkashlar real daromadlarining pasayishiga olib keladi" [14].

Bizningcha, muallifning mazkur fikrlari mamlakatimizda olib borilayotgan soliq siyosati bilan uyg'un bo'lib, egri soliqlarning iqtisodiy jarayonga ta'sirini to'laqonli ifodalaydi.

Iqtisodchi olimlar L. Grishkova va V. Anoshkin egri soliqlar xususida quyidagicha fikr bildiradilar: "Egri soliqlar ommaviy iste'molchilardan olinadi va ular sof fiskal funksiyani bajaradi. Masalan, qo'shilgan qiymat solig'i (QQS), aksizlar, bojxona bojlari mahsulot narxining oshishi hisobiga qoplanadi" [15].

Professor T. Malikov esa egri soliqlarga quyidagicha ta'rif beradi: "Daromadlar sarflanayotgan paytda olinadigan soliqlar tizimi bo'lib, ular daromadlar emas, xarajatlar bilan bog'liq. Bu soliqlar narx yoki tarifga ustama tarzida belgilanadi va soliq to'lovchining daromadlariga bog'liq bo'lmaydi. Egri (bilvosita) soliqlarda ishlab chiqaruvchi yoki xizmat ko'rsatuvchi tovar yoki xizmatni ustama baho bilan sotadi va tushumdan belgilangan summani davlat budjetiga o'tkazadi. Shunday qilib, ishlab chiqaruvchi soliq yig'uvchi, xaridor esa egri soliq to'lovchi sifatida namoyon bo'ladi" [16].

Iqtisodchi olimlar M. Almardonov va P. Saidxo'jayevlar bu fikrlarni quyidagicha to'ldiradilar: "Egri soliqlar tarifga yoki narxga kiritilgan tovarlar va xizmatlar uchun to'lanadi. Tovar egasi yoki xizmat ko'rsatuvchi soliq summasini xariddan undirib, davlat budjetiga o'tkazadi. Bu – soliqqa tortishning bilvosita shaklidir. Egri soliqlar narx yoki ustama shaklida solinadi. Bu holatda davlat realizatsiya jarayonida yangi yaratilgan qiymat taqsimotida ishtirok etadi, ya'ni qiymatning ma'lum qismiga egalik qiladi. To'g'ri soliqlardan farqli o'laroq, egri soliqlar to'lovchining daromadi yoki mol-mulki bilan bevosita bog'liq emas. Egri soliqqa tortish obyekti odatda iste'mol tovarlari yoki xizmatlar aylanmasidir" [6].

XULOSA VA TAKLIFLAR

Egri soliqlar bo'yicha mavjud qarashlarni qiyosiy tahlil etgan holda, ular uchun umumiy bo'lgan quyidagi xususiyatlarni ajratish mumkin:

Ushbu soliqlarning qo'llanilishi narxlarning oshishiga va bilvosita soliqqa tortilgan tovarlarga bo'lgan talabning kamayishiga olib keladi;

Egri soliqlar qo'llanilganda ishlab chiqarish hajmi hamda narxlarning o'zgarish darajasi, asosan, talab va taklifning egiluvchanligiga bog'liq bo'ladi;

Talab va taklifning egiluvchanligiga qarab soliq yuki sotuvchi va xaridor o'rtasida ma'lum nisbatlarda taqsimlanadi;

Boshqa barcha soliqlar kabi, ushbu soliq turida ham soliq stavkalarining ma'lum chegaradan oshishi ularning tushumlarini kamayishiga olib keladi;

Iste'mol soliqlarning qayta taqsimlovchi xususiyati soliq to'lovchilarning nafaqat daromadlariga, balki xarajatlariga ham ta'sir ko'rsatadi.

Egri soliqlarning iqtisodiy mohiyatini va ularning soliq tizimidagi o'rnini tahlil qilgan holda quyidagi xulosani bildirishimiz mumkin: egri soliqlar va ulardan iqtisodiy rivojlanish yo'lida samarali foydalanish zarurati respublikamizda olib borilayotgan soliq islohotlarining muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, biz egri soliqlarning aniqlash mezonini quyidagicha belgiladik: "Egri soliqlarning eng so'nggi to'lovchisi – bu mahsulot iste'molchisidir, ya'ni narxga ustama shaklida soliq yuklangan mahsulotning oxirgi iste'molchisi."



Tarixiy manbalar egri soliqlar hatto Qadimgi Rim kabi ilk quldorlik jamiyatlarida ham qo'llanilganligini ko'rsatmoqda. Bu soliqlar uzoq tarixiy rivojlanish bosqichlarini bosib o'tar ekan, ularning amalda qo'llanilishi yuzasidan turlicha qarashlar shakllangan. Ammo bizning fikrimizcha, bu boradagi eng asosli qarashlardan biri A. Smitga tegishli. U egri soliqlarning tovarlar narxini oshirishi oqibatida aholining talabi pasayishini va bu esa ishlab chiqarish hajmining kamayishiga olib kelishini e'tirof etgan. Shunga qaramay, u quyidagi fikrni ilgari suradi: "Shuning uchun ham davlat bunday soliqlarni bekor qilmasligi uchun asosli sabab mavjud."

Fikrimizcha, ushbu mulohazalar bugungi kungacha dolzarbligini yo'qotmagan. Ya'ni, faqat bilvosita va bevosita soliqqa tortishning maqbul nisbatlarini qo'llash orqaligina davlatning fiskal manfaatlariga hamda soliq to'lovchilarning iqtisodiy manfaatlariga mos keluvchi samarali soliq tizimini shakllantirish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Yu, D., Xu, Z., & Wang, X. (2020). Bibliometric analysis of support vector machines research trend: a case study in China. *International Journal of Machine Learning and Cybernetics*, 11(3), 715–728.
2. Isroilov B. I., Ibragimov B. B. Bibliometricheskiy analiz oblasti znaniy nalogovogo administrirovaniya // *Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot*, 10, 2023. – B. 902.
3. Brazovskaia V., Gutman S., Isroilov B., Ibragimov B. 2024. Digital Tools for Visualizing the Knowledge Area of Renewable Energy Through Bibliometric Analysis // *In Proceedings of the 7th International Conference on Future Networks and Distributed Systems (ICFNDS '23)*. Association for Computing Machinery, New York, NY, USA, 1–11.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 29-iyundagi "O'zbekiston Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi to'g'risida"gi PF-5468-son Farmoni: <https://lex.uz/ru/docs/-3802378>
5. N. V. Milyakov. *Nalogy i nalogoblozhenie*. M.: Infra-M, 1999. – B. 29.
6. M. Almardanov, P. Saidxo'jayev. *Bilvosita soliqlar // Soliq to'lovchining jurnali*. 1997. №4(16). – B. 23.
7. N. I. Ximichev. *Finansovoe pravo*. M., 1996. – B. 232.
8. *Kurs ekonomiki / Pod red. B. A. Rayzberga*. M., 1999. – B. 463.
9. V. M. Pushkareva. *Istoriya finansovoy mysli i politiki nalogov*. M.: Infra-M, 1996. – B. 145.
10. M. M. Alekseenko. *Vzglyad na razvitie ucheniya o naloge*. Xarkov, 1870. – B. 30.
11. V. Petti. *Traktat o nalogakh i sborkh*. M., 1997. – B. 85.
12. Sh. L. Monteske. *O duxe zakonov*. M., 1999. – B. 193.
13. L. V. Xodskiy. *Osnovy gosudarstvennogo xozyaystva*. Kurs finansovoy nauki. SPb., 1913. – B. 149.
14. Q. Yahyoyev. *Soliqqa tortish nazariyasi va amaliyoti*. T.: 2000. – B. 33.
15. L. Grishkova, V. Anoshkina. O'zbekiston Respublikasining soliq tizimi: shakllanish bosqichlari // *Bozor, pul, kredit jurnali*. 1998. №1. – B. 12.
16. T. S. Malikov. *Soliqlar va soliqqa tortishning dolzarb masalalari*. T.: 2002. – B. 190.
17. O. A. Shodiyev. *Aksiz solig'ining iqtisodiy mohiyati va o'ziga xos xususiyatlari // «Moliyaviy texnologiyalar» ilmiy elektron jurnali*, 2023-yil, 4-son.
18. O. A. Shodiev. Current state and ways of development of excise tax administration in Uzbekistan // *International Journal of Economic Perspectives*, 17(12), 102–106. ISSN: 1307-1637.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 5

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
